

FARG'ONA VODIYSIDA O'RMON XO'JALIGINI VUJUDGA KELISHI TARIXIDAN

ИЗ ИСТОРИИ СОЗДАНИЯ ЛЕСНОГО ХОЗЯЙСТВА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

FROM THE HISTORY OF THE CREATION OF FORESTRY IN THE FERGANA VALLEY

Olimov Jahongir Bo'riboevich
Qo'qon universiteti o'qituvchisi, PhD.
olimovjahongir1982@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududida zamonaviy ma'nodagi birinchi o'rmon xo'jaligini vujudga kelishi hamda yurtimizda bu borada dastlab amalga oshirilgan ishlar tarixi borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'z va iboralar: O'rmon, o'rmon xo'jaliklari, Davlat o'rmon fondi, Kvint Kursiy Ruf, Turkiston tog' tizmasi.

Аннотация: В данной статье рассказывается об истории первого лесничества в Узбекистане и первой деятельности в этой области.

Ключевые слова и фразы: Лес, лесное хозяйство, Государственный лесной фонд, Квинт Курций Руф, Туркестанский хребет.

Annotation: This article tells about the history of the first forestry in Uzbekistan and the first activities in this area.

Key words and phrases: Forest, forestry, State Forest Fund, Quintus Curtius Ruf, Turkestan Range.

Tarixga nazar tashlanadigan bo'lsa, O'zbekistonda insonning tabiatdan foydalanish davri uzoq ming yilliklarga to'g'ri keladi. Arxeologlarning ta'kidlashiga ko'ra, quyi Amudaryoning o'zlashtirilishi eramizdan oldingi IV–III ming yilliklarga borib taqaladi[1]. Bu davrlarda ibtidoiy odamlar, asosan, Amudaryoning eski deltasida yashab, suv hayvonlarni ovlab hayot kechirishgan. Suv bo'ylaridagi o'rmonlar va ularda yashovchi hayvonlar va o'simliklar dunyosi ularning asosiy ozuqaviy manbalaridan biri bo'lgan[2]. Shuningdek, to'qay o'rmonlari uy qurish uchun kerakli material bilan odamlarni ta'minlagan. Shuning uchun aholi bu o'rmonlardan uzoqqa ketmasdan yashashga harakat qilganlar. O'rmonlar va ulardagi o'simliklar dunyosiga yaqin bo'lib yashash odamlarni o'troq tarzidagi hayotga ham o'rgatgan [3].

Aslini olganda, O'rta Osiyoda o'rmonlar keng tarqalmagan. Hududning 6,7 foiziga o'rmonlar bilan qoplangan. Bir qator tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi davrlarda O'rta Osiyoda o'rmonlar va o'simliklar ancha katta maydonlarni egallagan ekan. Masalan, Aleksandr Makedonskiy tarixini yozgan Kvint Kursiy Ruf Zarafshon vodiysini tasvirlashi mobaynida bu yerlarda ko'plab o'rmonlar mavjud bo'lganligini qayd etadi. U yana Panjikentga yaqin yerlarda o'tib bo'lmas o'rmonlar borligini ham yozgan [4].

Tarixga nazar tashlanadigan bo'lsa, O'zbekistonda insonning tabiatdan foydalanish davri uzoq ming yilliklarga to'g'ri keladi. Arxeologlarning

ta'kidlashiga ko'ra, quyi Amudaryoning o'zlashtirilishi eramizdan oldingi IV–III ming yilliklarga borib taqaladi[1]. Bu davrlarda ibtidoiy odamlar, asosan, Amudaryoning eski deltasida yashab, suv hayvonlarni ovlab hayot kechirishgan. Suv bo'ylaridagi o'rmonlar va ularda yashovchi hayvonlar va o'simliklar dunyosi ularning asosiy ozuqaviy manbalaridan biri bo'lgan[2]. Shuningdek, to'qay o'rmonlari uy qurish uchun kerakli material bilan odamlarni ta'minlagan. Shuning uchun aholi bu o'rmonlardan uzoqqa ketmasdan yashashga harakat qilganlar. O'rmonlar va ulardagi o'simliklar dunyosiga yaqin bo'lib yashash odamlarni o'troq tarzdagi hayotga ham o'rgatgan [3].

Aslini olganda, O'rta Osiyoda o'rmonlar keng tarqalmagan. Hududning 6,7 foiziga o'rmonlar bilan qoplangan. Bir qator tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi davrlarda O'rta Osiyoda o'rmonlar va o'simliklar ancha katta maydonlarni egallagan ekan. Masalan, Aleksandr Makedonskiy tarixini yozgan Kvint Kursiy Ruf Zarafshon vodiysini tasvirlashi mobaynida bu yerlarda ko'plab o'rmonlar mavjud bo'lganligini qayd etadi. U yana Panjikentga yaqin yerlarda o'tib bo'lmas o'rmonlar borligini ham yozgan [4]

Faqatgina XIX asr oxirlaridan boshlab O'rta Osiyoda asta-sekin o'rmon xo'jaliklari paydo bo'la boshladi. Masalan, 1897-yili Amudaryo o'rmon xo'jaligi vujudga kelgan. Amudaryoning quyi oqimida o'rmonchilik ishlarini olib borish 1909-yildan boshlangan. Shu yilgacha o'rmonlarning maydonlari va ularni hisobga olish ishlari olib borilmagan edi. Shu davrdan boshlab o'rmonlarni hisob-kitob qilish yo'lga qo'yila boshlandi.

Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston hududida o'rmon xo'jaligiga XIX asrning ikkinchi yarmida asos solinganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. O'zbekiston hududida zamonaviy ma'nodagi birinchi o'rmon xo'jaligi 1873-yili hozirgi Bo'stonliq tumani hududida tashkil etilgan. 1875-yilda Turkiston tog' tizmasining Molguzar tarmog'i yonbag'rida Zomin o'rmon dam olish maskani tashkil qilingan. 1890-yilda Amudaryo bo'limida o'rmon bo'limi (lesnichestvo) tashkil qilingan. Turkiston o'lkasida o'rmon bilan bog'liq qidiruv-tekshiruv ishlari 1889–1894-yillarda maxsus tashkilotlar yordamida amalga oshirilgan bo'lib, natijada o'rmonlarning ayovsiz yo'q qilingani aniqlangan. 1895-yilda Turkiston va Molguzar tog'li hududlarida Zomin o'rmon xo'jaligi tashkil qilingan. 1897-yilda esa, o'rmonlarni himoya qilish va saqlash maqsadida "O'rmonlarni saqlash haqida" Nizom qabul qilingan [6].

1912-yili Amudaryoning o'ng qirg'og'ida to'qay o'rmonlari tashkil qilindi. Bundan ko'rinadiki, o'sha davrlardan boshlab o'rmonlarni saqlab qolish masalasi bilan jiddiy shug'ullanilgan. Turkiston o'lkasini boshqarish bilan bog'liq o'sha davrga oid qonun hujjatlari orasida o'rmonlarni saqlashga qaratilganlari ham bor edi. Masalan: yovvoyi o'rmonlar ham, bo'sh yerlar ham davlat mulki deb hisoblangan, xalqlar yashayotgan yerlar ularga doimiy foydalanish uchun berilgan. Yoki Rossiya imperiyasi ma'murlari saksovulzorlarni qo'riqlash masalasini ilgari surib, ulardagi saksovullarni yo'q bo'lib ketishiga qarshi turgan. Lekin shunga qaramay, aholi saksovullardan o'z ehtiyojlari yo'lida doimiy ravishda foydalanib kelgan. Jumladan, hukumatning taqiqlashiga qaramay, saksovullarni kesish va bozorda sotish holatlari ko'p uchrab turgan.

Ma'lumotlarda keltirilishicha, 1911-yili cho'l o'rmonlarida 634 kishi o'rmonlarni qo'riqlash uchun tayinlangan bo'lsa-da, 1914-yilgi hisobotlarda o'rmonlarni saqlash bilan bog'liq qoidalar 616-marta buzilganligi qayd etilgan. Bu borada tarixiy hujjatlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 1911-yili Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan o'rmon egalarining syezdida Turkiston o'lkasi yer boshqarmasi va davlat mulki boshqaruvchisi knyaz Mosalskiy tog' o'rmonlarining qisqarishi xaqida: "...oldingi davrlarda Turkistondagi tog' o'rmonlari ancha katta bo'lgan. Ular vodiylar hatto odamlar yashaydigan joylargacha tarqalgan edi", – deya ta'kidlaydi. Lekin asrlar davomida aholining ta'siri bu o'rmonlarining keskin kamayishiga sababchi bo'lgan. Tog' o'rmonlarinig bunday yo'q qilinishi tabiiy balansni buzishidan tashqari, tabiiy ofatlarga ham olib kelishi mumkin edi. Mana shunday sharoitda butun Turkiston hayotini yaxshilashga yordam beruvchi tog' o'rmonlarini muhofaza qilish o'rmon xo'jaligining asosiy vazifasi bo'lishi lozim edi[7]. Shunisi qiziqki, aholining o'zi ham o'rmonlarni saqlab qolish va qo'riqlashdan manfaatdor bo'lgan. Chunki o'rmonlar ular uchun daromad manbai, yashash uchun vosita bo'lib xizmat qilgan.

1911-yildan boshlab Turkiston o'rmon xo'jaligida yangi davr boshlangan. Bunda o'rmonlardan kelgan foyda davlat hisobiga o'tkazilgan. Oqibatda, o'rmondan olingan o'tinlar narxi oshib ketgan. O'rmonda chorva mollarini boqish uchun ham turli ko'rinishdagi narxlar belgilangan. Bu aholining noroziligiga sabab bo'lgan. Chor xuqumatining urinishlari katta va kutilgan natijalarga olib kelmaganligi sababli Turkiston general-gubernatori Kuropatkin 1917-yil 17-yanvarda Turkiston o'lkasi hududiga tegishli bo'lgan o'rmon bilan bog'liq buyruq chiqargan. Bu buyruqda aholining o'rmonlardan foydalanishiga erkinlik berilgan. Shunday qilib, Turkiston o'lkasidagi o'rmon xo'jaligi bilan bog'liq davlat ishlari muayyan chora-tadbirlar bilan yakunlangan.

Xulosa qilib aytganda, insonlarning tabiatda mavjud bo'lgan daraxtlardan foydalanish tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. O'rta Osiyoda yashagan qadimgi ajdodlarimiz ham bundan ming yillar avval tabiiy o'rmonlarda mavjud bo'lgan xomashyolardan o'z ehtiyojlari yo'lida foydalanib kelganlar.

MANBALAR VA ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ягодин В.Н. Население Южного Приаралья в рабовладельческую эпоху. История Каракалпакской АССР (с древнейших времен до наших дней). – Ташкент, 1986. – С. 21-32.
2. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент, 1957. – С. 48.
3. Байраммурад А. Тугайные леса Амударьи и повышение их защитных функций. Автореф. дисс. канд. геог. наук. – Алма-Ата, 1987. – С. 20.
4. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского // История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В.Лунин. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 127
5. Руи Гонсалес де Клавихо. Буюк Амир Темур тарихи // Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. – Toshkent: G'ofur G'ulom, 2007. – 109-113 bet
6. ЎзМА, И-1-fond, 11-ro'yhat, 803-ish, 13-varoq

7. Лим В.П. Охрана живой природы на территории Узбекистана Дисс. докт. биолог, наук. – Ташкент, 2002. – С.19.